

XURSHID DAVRON SHE'RLARIDA TARIXIY SHAXSLAR SIYMOSI

To'xtayeva Lola Rustam qizi

BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistri

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xurshid Davron she'rlari asosida tarixiy shaxslar siymosining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoir ijodida Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqat, Oybek, Abdulla Qodiriy, Umar Xayyom kabi tarixiy siymolar obrazlari milliy o'zlik, istiqlol g'oyasi va ma'naviy uyg'onish konsepsiyasi uyg'un holda yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *qatag'on, tarix, she'riyat, san'at, ijodkor, ijod, nom, shoir, adolat, istiqlol.*

Xurshid Davron she'riyatida tarixiy obrazlar shunchaki o'tmish timsoli emas, balki bugungi avlodni ogohlikka, vatanparvarlikka va milliy g'ururga chorlovchi ramziy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Sobiq Sovet davrida qatag'on qurboni bo'lishiga oz qolgan ijodkorlardan biri Oybekdir. Oybekning ham butun hayoti davomida ko'plab tuhmat toshlari otiladi. Butun she'rlari bilan kitobxon qalbini zabt etgan, xalqning dardini yozgan ijodkor sud zalidan oqlanib chiqadi. Afsuski, o'z xalqini sotgan asl dushmanlar Oybekni "xalq dushmani" deya ayblashmoqchi bo'lgan.

Oybekning she'rlari bamisli nigoh,

Bu nigoh asrorin yo'qdir poyoni.

Xuddi bo'lmagandek maysaga izoh,

Yo'q Oybek she'rining to'la bayoni! [1, 41]

Quyidagi parchada ham Oybekning she'rlari naqadar sermazmun ekanligini aytadi ijodkor. Boshdan oxir tashbeh san'atini qo'llash orqali Oybekning she'rlaridagi ma'nolarning naqadar poyonsiz ekanligini aytadi, xuddi maysani qancha go'zalligini ta'riflasi, til ojiz bo'lgani singaridir.

Xurshid Davron butun hayotini vatandan olisda hukmronlik qilgan shoh va shoir Boburning ayrliq to'la hayoti haqida sonet yozadi.

Alishardim butun saltanatimni

Yurtimning bir chimdim xok-u xasiga ,

Turkiston bog'larin xush nafasiga. [1, 64]

XV asrda Xuroson va Movorounnahrda taxt uchun kurash, xalqqa zulm, soliqlar, adolatsizliklar rivojlangan bir paytda Boburga turli tuhmatlar qilinadi va taxtni egallash uchun o'z qarindoshlari tomonidan jabr-zulmlar ko'payadi. Bu vaziyatda Bobur o'z yurtini tashlab Hindiston sari yuzlanadi va umrining oxirigacha shu yerda hukmronlik qiladi. Shoir ham yurtidan yiroqdagi Boburning yurt sog'inchini bitadi. Hattoki, bir chimdim tuprog'iga butun saltanatidan voz kechish darajasida ilojisiz bo'lganligi ifodalangan. Tarix sahifalarida Bobur singari notinch yurtdan yiroqda ,tuhmatlar girdobida qolgan yana bir ijodkor tasvirini talmeh san'ati orqali tasvirlaydi va unga atab sonnet yozadi:

Men shuur olganim ekan jar komi ,

Qo'l cho'zdim itardi; "sart" deb ko'ksimdan ,

Istibdod bor nurni ichdi ko'zimdan,
Furqat – bu umrning qaro kalomi...[1, 65]

Furqat ham boshqa ijodkorlar singari yurt ozodligini, adolatni talab qiladi, lekin aynan shu xalq Furqatni ayriliqqa majbur qiladi. Furqat so'zining ma'nosi "ayriliq" bo'lganidek, Furqatning hayoti ham yurtdan quvg'in bo'lgan holda kechadi. She'rda kimga yordam qo'lini cho'zsa, uni quvg'in qilishgani haqida aytiladi. Ilimsizlik, zulm, jaholat bir insonning umrini zulmatga aylantiradi. Shuning uchun ijodkor Furqat ham "ayriliq" so'zlarini "umrning qora kalomi" deya ta'riflaydi. Bu yerda Furqat orqali "ayriliqqa" ishora qilinadi.

O'tmish zarvaraqlarida o'z nomini qoldirgan ijodkorlardan biri Abdulla Qodiriydir.

Qodiriyning tergovchilarin
Aytib bering nomma nom xalqqa,
Yiqing yolg'on tirgovuchlarin,
Toki xalqim yetishsin xalqqa.[1, 70]

Abdulla Qodiriy ham SSSR hukmronlik qilgan davrning adolatsizliklarni o'z she'rlarida tasvirlagan. Xalqni ozod, hur bo'lishga chorlagan, ammo bu Sobiq Sovet hukumatiga yoqmagan. Chunki bu davrda ularga ilmi xalq emas "qo'ydek" yuvvosh xalq kerak bo'lgan. Abdulla Qodiriy ham zamondoshlari qatorida 1935-1936-yillarda "xalq dushmani" deya otishga hukm etiladi. Shoir ham yuqoridagi parchada asl haqiqatlarni, Qodiriyning aybsiz ekanligini aytishga uringan. "Toki xalqim yetishsin xalqqa", ya'ni Qodiriy o'z yurtining soxta guvohlari qurboni, shoir bu she'rda Qodiriy asl vatandoshlari orasida bo'lishini xohlagan.

Namozni yov o'ldirgan tunda ,
Yetti yulduz so'ndi osmonda
Namozni yov o'ldirgan tunda
Qonga botib kun balqdi tongda .[1, 80]

Namoz Pirmqul o'g'li 1905-1907 yillardagi rus burjua-demokratik revolyusiyasi davrida Samarqand atrofidagi qishloqlarda ko'tarilgan xalq harakati yo'l boshchisi (qachon, qayerda tug'ilganligi aytilmagan)..."

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" sahifalarida (Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2003 yil, 262-bet) yozilishicha, "Samarqandda milliy zulm va haqsizlikka qarshi ko'tarilgan ommaviy xalq harakati boshlig'i... Namoz Pirmqul o'g'lining qilgan ishlari xalq o'rtasida doston bo'lib ketgan.⁸ Ijodkor bu parchada mubolag'a, tashxis san'atlarini qo'llab tarixiy qahramonning qilgan jasoratlarini yoritib beradi. Namoz botir obrazida adolatparvar, erksevar, jasur, botir, oddiy inson bo'lsa-da xalqni o'ylaydigan inson obrazini tasvirlaydi.

Shu tuproqda qaydadir pinhon,
Oshiq umar qabri bor...Biroq,
Bu sirni hech ochgisi kelmas .
Dushman kelib toptagan tuproq.[1, 125]

Umar al-Xayyom 1048-yil 18-mayda Nishopur shahrida chodir tikuvchi kosib oilasida dunyoga kelgan. Uning "Xayyom" laqabi ham otasining chodir tikuvchilik hunariga

⁸ <https://zarnews.uz/uz/post/namoz-botir-u-kim-qachon-va-qaerda-tugilgan>

monanddir. Umar Xayyom Buxoro va Samarkand shaharlarida yashab, ta'lim olgan, ijod qilgan.⁹

Dunyoviy falsafa vakili sifatida Xayyom dunyoni aql elagida elaydi — Olam va Odam muammosini umumfalsafa mezoni bilan o'lcaydi. Shu ma'noda, Xayyom ijodida biz odamdan ham, olamdan ham ustun turadigan — dunyoni qamrab oladigan shafqatsiz falsafaga duch kelamiz.

Lekin farang faylasufi Laroshfuko: "Falsafa o'tmish va kelajak kulfatlari ustidan tantana qiladi, lekin bugunning qayg'usi falsafa ustidan tantana qiladi", — degani kabi Umar Xayyom ruboiylari ham buyuk mutafakkirning falsafiy mezonlariga bo'ysunmagan, ularni yorib chiqqan zalvorli fikrlar po'rtanasi, beorom qalbiga sig'magan otashin tuyg'ular silsilasidir.

Agar shunday bo'lmaganda, Xayyomning isyonkor she'riyati ham dunyoga kelmas edi. Buyuk olim, astronom Umar Xayyom 1122-yili Nishopurda vafot etadi.¹⁰ Umar Xayyomning dushmanlari tomonidan qabri toptalmasligi uchun sir tutilgan va bu haqiqatni yuqorida ham shoir aytib o'tgan. Bu parchada ham talmeh san'ati foydanilgan (Umar Xayyom).

Xurshid Davron vatani, xalqi uchun jonini ayamagan insonlar haqida yozar ekan ularning unitilmas asarlariga ham bir paytda ishora qiladi;

Bog'larni zulumot,
Qurshab olgan choq.
Jo'nardi -sezmasdin buni tiriklar,
Uni qo'riqlardi tunlari Shiroq ,
Uni qo'riqlardi Temur Maliklar.[1, 141]

Shoir ushbu she'rni M.Osimga bag'ishlab yozsa-da bir paytda tarix qahramonlarining jasoratini ham unutmagan. Shiroq V asrda o'z xalqini ko'chmanchi qabilalar zulmidan ozod qilishga harakat qilgan afsonaviy qahramon. Bu haqida ko'plab afsonalar mavjud. Temur Malik Xorazmda mo'g'illarning zulmiga qarshi jang olib borgan qo'zg'alon rahbari bo'lgan. Bu ikki qahramonning ham maqsadi bir, ya'ni yurt ozodligidir. Parchada aynan shu kabi qahramonlar bor ekan xalq tinch yashashi haqida yozilgan.

Bugungi tinch hayotda yashar ekanmiz, o'tmishni, undagi jonini qurbon qilgan qahramonlarni unutmazlik lozim.

Zero, o'tmishsiz kelajak yo'q.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

- 1.Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. T: Sharq, 1997. – B.220
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi''S''harfi
3. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/>
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/sh/shomil/>
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nuh_kemasi
6. <https://zarnews.uz/uz/post/namoz-botir-u-kim-qachon-va-qaerda-tugilgan>

⁹ Manba: Arboblar.uz <https://share.google/c4aiizG7I3u9y6aLT>

¹⁰ Manba: Arboblar.uz <https://share.google/c4aiizG7I3u9y6aLT>

7.Manba: International Engineering Journal For Research & Development
<https://share.google/0mpJ0YHYv2HYY6vF0>

8.Manba: Arboblar.uz <https://share.google/c4aiizG7I3u9y6aLT>